XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-aprel VI-80-31-11-163-K/24 Farg‘ona tumani

Farg‘ona tumandagi ayrim geografik obektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 16-moddasi hamda Farg‘ona viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2023-yil 16-dekabrdagi 06-7/3813-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan Farg‘ona viloyati hamda Farg‘ona tuman komissiyasining jami 121 ta geografik obyekt (ko‘cha)ni nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, shuniningdek qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, ekspert komissiyasiga taqdim etilgan jami 121 ta geografik obektni nomlash bo‘yicha taklifidan 14 ta geografik obektning nomi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 16-yanvar kunidagi 03/08-395-sonli xatiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Farg‘ona tuman hokimining tumandagi ayrim geografik obyektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reyestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2.Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan tumandagi geografik obyekt nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik obyektlarning ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

4.Mazkur qaror “Vodil yog‘dusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur Kengash qarori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga yuborilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO TADJIYEVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2024-yil 9-apreldagi
VI-80-31-11-163-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan tumandagi geografik obyekt nomlari

T/R	MFY	“Geografik obyektlarning o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirilgan ko‘cha
1	Shohimardon MFY	Porsin
2	Shohimardon MFY	Dashtariq
3	Yordon MFY	Qiziltog‘
4	Tinchlik MFY	Tinchlik
5	Tinchlik MFY	Alisher Navoiy
6	Beruniy MFY	Beruniy
7	Sanoat MFY	Sanoat
8	Shohimardonobod MFY	Shohimardonobod
9	Yoyilma MFY	Zarbdor
10	Ulug‘bek MFY	(Ulug‘bek) Mirzo Ulug‘bek-“Geografik obyektlarning o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi.
11	Mash’al MFY	Qadr-qimmat
12	Mozortagi MFY	(Sahovat) Saxovat- “Geografik obyektlarning o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi.
13	O‘rtaqishloq MFY	(O‘rta qishloq) O‘rtaqishloq-“Geografik obyektlarning o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi.
14	Qorasuv MFY	(Kosmanavt) Fazogir- “Geografik obyektlarning o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi.